



## INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Fozilova Odina Nabiyevna**

Maktabgacha talim kafedrası katta oqituvchisi,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Abduraxmanova Zilola Patidinovna**

magistrant

Pedagogika va psixologiya fakulteti, Farg'ona davlat universiteti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943607>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 17-May 2023 yil

### KEY WORDS

*Pedagog, tarbiyachi, kompetensiya, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, pedagogning funksional vazifalari, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, pedagogik kvalimetriya, pedagogik munosabat.*

### ABSTRACT

*Ta'lim jarayonida mutaxassislarining kasbiy faoliyatida (egallaydigan ixtisosligi bo'yicha) zarur bo'ladigan barcha ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachining kasbiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish va mustahkamlash muammolari haqida so'z yuritiladi.*

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi, axloqli insongina ta'lim (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda "pedagogik texnologiya" tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek, asosiy e'tiborni faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.<sup>1</sup>

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim rivojlantiruvchi muhitni yaratilishiga olib keladi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

- Uyg'unlik;
- Yaratuvchanlik;
- Moslashuvchanlik;
- Tabiiylikka asoslanish;

<sup>1</sup>O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, TOSHKENT "INNOVATSIYA-ZIYO" 2019, 12 bet

- Inkorporatsiya (tizimli faoliyat ko'rsatish)

Innovatsion texnologiyalar takomillashib borgan sari ulardan ta'lim jarayonida foydalanish pedagoglar oldiga yangi vazifalarni yuklab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish borasida hozirgi kunda doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va barkamollik ruhida tarbiyalash maqsadida avvalo hissiy-emotsional mo'tadillikni saqlashga e'tibor qaratiladi. Chunki insonning ichki dunyosi uning his-tuyg'ularida shakllanadi. Shuning uchun har bir ta'lim yangiligi o'zida insondagi ichki muvozanatni saqlash bilan hamohanglikka intilib boradi.

Ma'lumki, maktabgacha yosh davrining har bir yosh bosqichi o'zlashtirish sifati jihatidan keskin farqlanadi. Maktabgacha kichik, o'rta, katta va tayyorlov yoshidagi bolalar orasidagi farq aniq ko'zga tashlanib turadi. Ammo har bir o'sish va rivojlanish bosqichidagi bolalarda tashqi olamni ixtiyorsiz ravishda idrok etish jarayoni kechadi. Shuning uchun mutaxassislar maktabgacha yosh davridagi bolalarga yangi bilimlarni berishda dastlabki yetti minut qoidasiga amal qilishni ta'kidlab o'tishadi. Chunki bolaning diqqati aynan ushbu vaqt davomida barqarorlashadi. Demak, boshqa soha egalaridan farqli ravishda tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mahoratga ega bo'lishi juda muhim sanaladi. Bolaga yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotni shu daqiqalar ichida shakllantira olgan pedagoggina ta'limiy maqsadni bajargan hisoblanadi. Yuksak mahoratni talab etuvchi bu jarayonda afsuski, har qanday pedagog ham kutilgan natijaga erishishi mushkul. Shuning uchun bolalarda yangi bilimni hosil qilishda noan'anaviy metodlar ta'lim sifatini ko'tarishda ko'maklashadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar mavjud va ular takomillashib bormoqda.

2018-2019 o'quv yilidan e'tiboran maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat "Ilk qadam" davlat dasturi asosida markazlarda faoliyat va frontal mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Pedagoglar ham yangi texnologiyalarni qo'llanilishini aynan shu jarayon bilan bog'laydilar. Aslida esa maktabgacha ta'lim sharoitida innovatsion yangiliklardan foydalanish uchun imkoniyat ko'proq bo'ladi. Chunki tarbiyalanuvchining kunlik faoliyatining asosiy qismi tashkilotda o'tadi. Shuning uchun pedagog kun tartibini o'zi va bolalar individualliklaridan kelib chiqqan holda tashkil etishi mumkin. Tarbiyachidan har doim kreativ fikrlash talab qilinishining boisi ham shundaki, innovatsion texnologiyalar qanchalik turli-tuman ko'rinishda bo'lmasin, ularni qo'llashda hamisha qandaydir noqulayliklar yuzaga keladi. Ana shu jarayonda pedagog o'zining noan'anaviy fikrlash tarziga asoslanib texnologiyani o'z faoliyatiga "moslashtiradi". L.S.Vigotskiyning hisoblashicha, kognitiv rivojlanish eng yaqin rivojlanish zonasida boshqariladigan o'qitishdan ijtimoiy o'zaro aloqadorlik orqali yuz beradi. Zero, bolalar va ularning hamkorlari dialog orqali bilimlarini birgalikda boyitadi. Shuning uchun ta'lim strategiyalari bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini hisobga olishi kerak, chunki ular pedagoglar va bolalar o'rtasidagi hamda bolalar va boshqalar o'rtasidagi muloqotlar asosida o'rganadilar.<sup>2</sup>

Pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini ma'lum bir mavzu asosida aniqroq ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, bolalarga "Transport turlari" mavzusida yangi bilimlar berilishi zarur bo'lsin. Ma'lumotlarimizni texnologik ravishda faoliyat tarkibiga joylashtiramiz. Biz

<sup>2</sup> Grosheva I.B, Djanpeisova G.E, Mikailova U.T, Ismailova M.A, Kenjabayeva D.A, Gulyamova N.B, Miftayeva N.A "O'yin orqali ta'lim olish" Toshkent – 2020, 20 bet.

taklif qilayotgan innovatsion muhit faqatgina ta'limiy faoliyat uchun ajratilgan soatgagina xos emas, balki butun kun tartibini qamrab olmoqda. Ya'ni bolaning har bir faoliyatini mavzu doirasiga quyidagicha yo'naltirish mumkin.

- Ertalabki gimnastik mashqlarni transport turlari harakatlari bilan uyg'unlashtirish – yondashuv asosida jamoada transport boshqaruvi bilan bog'liq ko'nikmalarni hosil qilish;
- Markazlardagi faoliyat va frontal mashg'ulotlarda yangi bilimlarni berish – bu faoliyat orqali bolalar diqqatini jamlash va qiziqishini orttirish ( masalan, mantiqiy fikrlashga asoslangan o'yinlar);
- Ochiq havoga qilingan sayr mazmunini mavzuga bog'lash – transportlar va hayvonot olami o'rtasidagi o'xshashlik haqida suhbat olib borish (qushlar – samolyot, o'rdaklar – kema);
- Kechki soatlar ichida qiziqarli suhbat daqiqalarini o'tkazish – hayotiy vaziyatlar va kundalik hayot voqealariga asoslanib jamoa bilan suhbat qurish va bu jarayonda bolalar bilimini mustahkamlash.

Bolalar o'zaro hamkorlik va do'stona muhitni yoqtiradilar. Pedagogning bola erkinligini ta'minlashi ta'lim sifatini kafolatlaydi. Shuning uchun innovatsion muhitni yaratishda pedagog va bola hamkorligi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- tarbiyalanuvchining faoliyat davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga yo'naltirishi;
- tarbiyalanuvchining bilish jarayonida ma'lumotga bo'lgan qiziqishlarini davomiyligini ta'minlashi;
- pedagog va tarbiyalanuvchi hamkorligidagi ijodiy g'oyalarning vujudga kelishi va takomillashishi.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish tarbiyachi va tarbiyalanuvchining hamkorlikdagi faoliyati, oldiga qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vosita hamda yangi texnologiyaga bog'liq.<sup>3</sup> Shuni ham ta'kidlash mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolada hissiy-emotsional yaqinlik muhim ahamiyatga ega. Chunki bu yoshdagi bola kattalar bilan munosabatda doim faollikka intiladi. Pedagog hamkorlikdagi ta'lim jarayonini tashkil etar ekan bolaga ma'nau yaqinlashishi muhim, ya'ni:

- bola bilan imkon qadar do'stona suhbat qura bilish;
- vazifani birgalikda bajarishga intilish;
- uddaburonlik sifatini shakllantirish motivatsiyalaridan foydalanish;
- ijobiy xulq-atvorni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ta'sirchan ifodalarga urg'u berish;
- bola bilan o'zaro kelishuvga asoslangan muloqotga o'rnatish.

Kun tartibining to'g'ri va foydali tashkillanishi bolani yanada ta'limiy jarayonga yaqinlashtiradi va individual tarzda qiziqishlarini rag'batlantiradi. Qiziquvchanlik hamisha bolani harakatga undaydi va dunyoqarashi kengayishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga bola kelgusidagi o'quv faoliyatiga tayyorlanib, moslashib boradi.

<sup>3</sup> Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent 2008, 16 bet

Inson miyasida atrof-muhitga moslashuvchanlik qobilyati mavjud. Bu neyromoslashuvchanlik deyiladi. U bolalarda ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shu boisdan bu qobilyatni faol qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish zarur.<sup>4</sup>

Pedagog innovatsion texnologiya mohiyatini ochuvchi "Qanday o'rgatishim mumkin" degan savolni doim o'ziga berishi kerak. Ana shunda uning faoliyatida doim yangilanish, yuksalish kuzatiladi. Shuningdek, tarbiyalanuvchi ham doimiy yangiliklarni qabul qilishga moslashib boradi. Maktabgacha ta'lim jarayoni bolani maktab ta'limiga tayyorlashdek muhim vazifani bajarar ekan, pedagog qo'llayotgan innovatsion texnologiyalar ushbu vazifa ijrosini ta'minlab berishi lozim. Chunki har qanday texnologiya yuqori saviyali samaradorlikka ega deb ta'riflanmasin, har bir pedagog faoliyatida u o'zgacha mazmun kasb etadi. Ana shu mazmundorlikni ta'minlash esa tarbiyachi motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bolalar jamoasi har doim ilmiy tadqiqotlar obyekt sifatida dolzarb mavzu bo'lib qoladi. Ularning har biri individual xususiyat kasb etgani holda jamoa tarzida ham o'ziga xosdirlar. Faqatgina pedagog guruhdagi bir butunlikni tiklay olishi va bola tasavvurida yaxlit bilimni hosil qilishi talab etiladi. Ana shunda tarbiyalanuvchida umumiy kompetensiyalar shakllanib boradi. Bu borada innovatsion pedagogik texnologiyalar yaqin ko'makchi bo'lishi shubhasiz. Shuning uchun yangi texnologiyalarning turli ko'rinishlarini o'ylab topish, izlanishlar olib borish muhim vazifa bo'lmoqda. Chunki maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalarning salmog'i yuqori ta'limda qo'llanilib kelinayotgan texnologiyalarga nisbatan ulushi juda past darajani kasb etmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda maktabgacha ta'limda yangi islohotlar davriga o'tishning mukammal rejalari ishlab chiqildi.

Xususan, O'zbekistondagi pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolari bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta'limni rejalashtirish institute (Parij), YUNESKOning ta'lim bo'yicha institute (Gamburg), Oliy ta'limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta'limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda tadqiq etilmoqda.<sup>5</sup>

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda faqatgina o'z mustaqil fikr va dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxslargina ja'miyatda o'zining munosib o'rnini topa oladi. Shaxsning ijtimoiy tizim tarkibiga kirib borishining dastlabki bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limning bu boradagi o'rni takrorlanmas ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayoniga yangicha ko'rinishdagi modellarni olib kirishdan maqsad har bir boladagi o'ziga xos individual qobilyatlarni aniqlash va to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Yangi modellar ta'lim sohasida o'ziga xos yutuqlarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ja'miyatda bilimli shaxslar salmog'ining ko'payishiga olib keladi.<sup>6</sup>

Maktabgacha ta'lim bolani ijtimoiy hayot pog'onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo'lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoa hayotiga kirib boradi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy hayot tarziga ko'niktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirishdir.

<sup>4</sup> "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim vazirligi ilmiy jurnali 3-raqami May – 2019, 34 bet.

<sup>5</sup> D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent, 2018, 10 bet.

<sup>6</sup> J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov "Pedagogika" Toshkent. 2011. 41-43-betlar

Jamoaviy muhit bolada ijobiy xislatlarni vujudga kelishiga turtki bo'ladi.

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirishdan maqsad bu - bolani maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlash bilan birga hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishdan iborat. Bolalarning intellektual-madaniyatli shaxs bo'lib shakllanishida maktabgacha yosh davri muhim o'rinni egallaydi. Bolani maktabga tayyorlik darajasi deganda, uning aqliy, axloqiy hamda psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari nazarda tutiladi. Boladagi intellekt ma'lum bilim doirasini hosil qilgan, nutqi o'sgan holatda va fikrlab javob qaytarish, maktab o'quv dasturiga qo'yilgan talablarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz o'zlashtirish darajasida bo'lishi lozim. Axloqiy sifatlarida o'z xulq-atvorini idora qilish, nojo'ya hatti-harakatlardan o'zini tiya bilish, xulq-atvor qoidalariga bo'ysinish kabi xususiyatlar mujassamligi zarur. Psixologik ko'rsatkichlarda ixtiyoriy idrok, barqaror diqqat, obrazli, so'z-mantiqiy, mexanik turlardagi xotira shakli, analiz-sintez, taqqoslovchi va umumlashtira oluvchi xususiyatli tafakkur, tiklovchi xayol va ravon nutqning rivojlangan bo'lishi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi maktabga tayyorlov guruhi bolalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayrim sabablar natijasida bu xususiyatlar barcha bolalarda bir maromda rivojlanmasligi mumkin. Shuning uchun ta'lim samaradorligini oshirishda va bolalar savodxonligini yuksaltirishda ta'limda noan'anaviy metodlar yordamida bolalarning ta'lim-tarbiyasi samaradorligini oshirish lozim.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Grosheva I.B, Djanpeisova G.E, Mikailova U.T, Ismailova M.A, Kenjabayeva D.A, Gulyamova N.B, Miftayeva N.A "O'yin orqali ta'lim olish" Toshkent - 2020, 20 bet.
2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent 2008, 16 bet
3. Shin A.B., Mirziyoyeva Sh.SH., Grosheva I.B., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukaeva A.G., Vlasova E.H., Galimova E.F "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish" Metodik qo'llanma, Toshkent, 2020 yil 12 bet
4. Uljayevna O. F. et al. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILMIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK TIZIMI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - C. 660-667.
5. Uljayevna O. F. et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - C. 654-659.
6. O'rinova F., Abduraxmanova Z. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGNING MAHORATI, SHAXSIY-KASBIY MALAKALARI //Science and innovation. - 2022. - T. 1. - №. B7. - C. 386-392.
7. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI //Science and innovation. - 2022. - T. 1. - №. B3. - C. 349-355.
8. Uljayevna O. R. F., Qizi A. Z. N. TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK KOMPONENTLARI //Science and innovation. - 2022. - T. 1. - №. B3. - C. 340-344.
9. Uljayevna O. R. F. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI //Science and innovation. - 2022. - T. 1. - №. B2. - C. 88-91.

10. Uljayevna U. F. THE ACTIVITY OF DEVELOPMENTAL CENTERS IN THE FORMATION OF CHILDREN'S ABILITIES //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В2. – С. 107-110.
11. Уринова Ф. У. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ РЕБЁНКА ДОШКОЛЬНОГО И МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В2. – С. 68-71.
12. O'Rinova F. МАКТАБГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОДИАГНОСТИК ТАДҚИҚОТЛАР //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В8. – С. 1233-1237.
13. Urinov R. INNOVATIVE COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 508-511.
14. Urinov R. СПЕЦИФИКА АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 512-516.
15. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE". International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
16. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022).



INNOVATIVE  
ACADEMY